



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **TURKIYANING MINTAQAVIY XAVFSIZLIK SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO OMILI**

**Muitov Davron Sobirovich**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, professor

**Yarmuxamedova Irodaxon Nosir qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o‘qituvchi (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlik siyosatida Markaziy Osiyo omilining roli, ahamiyati va cheklovlari tizimli va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi xavfsizlik hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, institutsional mexanizmlar, geosiyosiy raqobat muhiti hamda transmilliy tahdidlar nazariy va empirik jihatdan o‘rganildi. Shuningdek, Turkiyaning mintaqada o‘z strategik ta‘sirini kuchaytirish uchun foydalanayotgan madaniy-diplomatik, geoiqtisodiy va harbiy instrumentlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning mintaqadagi xavfsizlik strategiyasi ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritayotgan Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Rossiya va Xitoy kabi yirik geosiyosiy aktorlar bilan raqobat muhiti sharoitida shakllanmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Turkiya, Markaziy Osiyo, geosiyosat, mintaqaviy xavfsizlik, transmilliy tahdidlar, harbiy hamkorlik, yumshoq kuch, geoiqtisodiyot.

## **ФАКТОР ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ПОЛИТИКЕ БЕЗОПАСНОСТИ ТУРЦИИ**

**Муйтов Даврон Собирович**

Узбекский государственный университет мировых языков, профессор

**Ярмухамедова Иродахон Носир кизи**

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье системно и научно анализируются роль, значение и ограничения фактора Центральной Азии в региональной политике безопасности Турции. В рамках исследования были теоретически и эмпирически изучены основные направления сотрудничества в сфере безопасности между Турцией и государствами Центральной Азии, институциональные механизмы, среда геополитической конкуренции, а также транснациональные угрозы. Кроме того, проанализированы культурно-дипломатические, геоэкономические и военные инструменты, используемые Турцией для усиления своего стратегического влияния в регионе. Результаты исследования показывают, что стратегия безопасности Турции в регионе формируется в условиях конкурентной среды с государствами Центральной Азии, проводящими многовекторную внешнюю политику, а также с такими крупными геополитическими акторами, как Россия и Китай.

**Ключевые слова:** Турция, Центральная Азия, геополитика, региональная безопасность, транснациональные угрозы, военное сотрудничество, мягкая сила, геоэкономика.

## **THE CENTRAL ASIAN FACTOR IN TURKIYE'S REGIONAL SECURITY POLICY**

**Muitov Davron Sobirovich**

Uzbekistan State World Languages University, Professor

**Yarmukhamedova Irodakhon Nosir qizi**

Uzbekistan State World Languages University, Senior Lecturer (PhD)

### **Abstract**

This article systematically and scientifically analyzes the role, significance, and limitations of the Central Asian factor in Türkiye's regional security policy. Within the framework of the study, the main directions of security cooperation between Türkiye and the Central Asian states, institutional mechanisms, the environment of geopolitical competition, and transnational threats were examined from both theoretical and empirical perspectives. In addition, the study analyzes the cultural-diplomatic, geoeconomic, and military instruments employed by Türkiye to strengthen its strategic influence in the region. The findings demonstrate that Türkiye's regional security strategy is being shaped within a competitive geopolitical environment involving the Central Asian states pursuing multi-vector foreign policies, as well as major geopolitical actors such as Russia and China.

**Keywords:** Turkiya, Central Asia, geopolitics, regional security, transnational threats, military cooperation, soft power, geoeconomics.

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevrosiyo makonining markaziy qismida joylashgan bo'lib, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim geostrategik hududlardan biri hisoblanadi. Mintaqaning strategik ahamiyati uning boy energetik resurslari, tranzit-logistika imkoniyatlari hamda Sharq va G'arbni bog'lovchi transport-kommunikatsiya yo'laklari bilan izohlanadi. Shu sababli Markaziy Osiyo tarixan yirik geosiyosiy kuchlar manfaatlarini kesishadigan hudud sifatida shakllangan.

XIX asrda mintaqa Rossiya imperiyasi va Britaniya imperiyasi o'rtasidagi geosiyosiy qarama-qarshilik maydoniga aylangan bo'lib, bu jarayon xalqaro munosabatlar tarixida "Buyuk o'yin" nomi bilan tavsiflanadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida esa Markaziy Osiyo yangi geosiyosiy raqobat makoniga aylandi. Rossiyaning postsovet makonidagi integratsion siyosati, Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi, AQSh va Yevropa Ittifoqining xavfsizlik hamda energetik diversifikatsiya siyosati mintaqaning xalqaro strategik ahamiyatini yanada oshirdi.

Turkiya uchun Markaziy Osiyo nafaqat geosiyosiy, balki sivilizatsion va madaniy jihatdan ham muhim strategik hudud hisoblanadi [1]. Mintaqa davlatlari bilan til, tarix, madaniyat va etnik yaqinlik mavjudligi Turkiyaning tashqi siyosatida "turk dunyosi" konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'ldi. Ushbu konsepsiya turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik sohalaridagi integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikdan so'ng ko'p vektorli tashqi siyosat modelini tanladi. Ushbu strategiya mintaqa davlatlariga bir vaqtning o'zida Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya va boshqa global aktorlar bilan muvozanatlashgan hamkorlik yuritish imkonini berdi. Natijada Turkiyaning mintaqadagi siyosati murakkab geosiyosiy va institutsional muhitda shakllanmoqda [2].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Turkiyaning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik siyosatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning strategik instrumentlari, geosiyosiy imkoniyatlari va institutsional cheklovlarini aniqlashdan iborat.

**ASOSIY QISM.** Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy raqobat va xavfsizlik masalalari xalqaro munosabatlar nazariyasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Allison Cooley va Laruelle tadqiqotlarida Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati hamda mintaqada Rossiya, Xitoy va G'arb davlatlari o'rtasidagi raqobat mexanizmlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlar mintaqaning global xavfsizlik tizimidagi o'rnini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini o'rganishda yumshoq kuch ("soft power") nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Joseph Nye tomonidan ishlab chiqilgan ushbu konsepsiyaga ko'ra, davlatlar faqat harbiy yoki iqtisodiy resurslar orqali emas, balki madaniy va **ideologik** jozibadorlik vositasida ham ta'sir o'tkazadi. Turkiya aynan til, madaniyat, tarixiy xotira va **diniy** yaqinlik omillari orqali Markaziy Osiyoda o'z strategik ta'sirini kengaytirishga intiladi.

Mackinderning "Heartland" nazariyasi Markaziy Osiyoni global geosiyosiy nazorat markazi sifatida talqin qiladi. Mazkur nazariya Turkiyaning mintaqadagi geosiyosiy manfaatlarini tushuntirishda nazariy asos vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, Mahanning dengiz kuchlari nazariyasi transport-kommunikatsiya va logistika yo'laklarining strategik ahamiyatini tushuntirish orqali Turkiyaning geoiqtisodiy tashabbuslarini izohlash imkonini beradi.

Empirik tadqiqotlarda Turkiyaning SHHT va KXSHT bilan bevosita integratsiyalashmaganligi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p vektorli tashqi siyosati Turkiyaning mintaqadagi strategik salohiyatini cheklovchi omil sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli Turkiya mintaqada asosiy xavfsizlik aktorlaridan biri sifatida emas, balki qo'shimcha strategik hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda, balki muqobil va qo'shimcha strategik hamkor sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu tadqiqot xalqaro munosabatlar nazariyalari, geosiyosiy konsepsiyalar va mintaqaviy xavfsizlik tahlillari asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Turkiyaning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik siyosatining strategik imkoniyatlari va cheklovlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdir.

Ushbu tadqiqot Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlik siyosatida Markaziy Osiyo omilining o'rnini va uning geosiyosiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda geosiyosiy tahlil usuli, institutsional tahlil, komparativ tahlil, konseptual nazariy tahlil, xalqaro tajriba hamda amaliy statistik va analitik ma'lumotlarga asoslanildi.

Geosiyosiy tahlil usuli – Markaziy Osiyoning strategik joylashuvi, resurs salohiyati va transport yo'laklarining global siyosiy jarayonlarga ta'siri o'rganildi.

Institutsional tahlil – **Turkiy** Davlatlar Tashkiloti (**TDT**), **SHHT** va **KXSHT** kabi mintaqaviy xavfsizlik institutlarining Turkiyaning strategik salohiyatiga ta'siri tahlil qilindi.

Komparativ tahlil – Turkiya siyosati Rossiya, Xitoy va AQShning mintaqaviy siyosati bilan solishtirildi, ularning geosiyosiy strategiyalari va instrumentlari tahlil qilindi.

Konseptual nazariy tahlil – Heartland nazariyasi, dengiz kuchlari nazariyasi va yumshoq kuch **konsepsiyasi** Turkiyaning strategik pozitsiyasini tushuntirishda qo'llanildi. Bu metodologiya Turkiyaning mintaqadagi strategik salohiyatini, uning imkoniyatlari va cheklovlarini tizimli va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik siyosati murakkab, ko'p darajali va ko'p aktorli geosiyosiy muhitda shakllanayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon xalqaro tizimning ko'p qutbli xarakteri, mintaqaviy xavfsizlik institutlarining o'zaro raqobati hamda Markaziy Osiyo davlatlarining balanslashgan tashqi siyosat strategiyalari bilan bevosita bog'liqdir.

Markaziy Osiyo bugungi kunda global va mintaqaviy kuchlar manfaatlarini kesishadigan strategik geosiyosiy makon sifatida namoyon bo'lmoqda. Rossiya Federatsiyasi mintaqada tarixiy, siyosiy va harbiy jihatdan mustahkam o'rnashgan aktor sifatida Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (**KXSHT**) hamda Yevrosiyo iqtisodiy integratsiya mexanizmlari orqali o'z ta'sirini institutsional asosda mustahkamlab kelmoqda. Shu bilan birga, Xitoy Xalq Respublikasi "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasida infratuzilma, energetika va transport-logistika sohaslariga yo'naltirilgan geoiqtisodiy ekspansiya orqali mintaqada yetakchi iqtisodiy aktyorga aylanmoqda.

Mazkur geosiyosiy muhitda Turkiya to'g'ridan-to'g'ri harbiy raqobat modelini emas, balki madaniy diplomatiya, institutsional hamkorlik va geoiqtisodiy instrumentlar uyg'unligiga asoslangan strategiyani qo'llaydi. Ushbu yondashuv xalqaro munosabatlar nazariyasida "yumshoq kuch" (soft power) konsepsiyasi bilan izohlanadi va Turkiyaning mintaqadagi nisbiy ta'sir mexanizmini tashkil etadi.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi institutsional siyosati Turkiy Davlatlari Tashkiloti (**TDT**) doirasida tizimli shaklga ega bo'lmoqda. Ushbu tashkilot mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim platforma sifatida a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy koordinatsiyani mustahkamlash, ta'lim, fan va madaniy integratsiyani chuqurlashtirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

TDT doirasidagi institutsional hamkorlik Turkiyaning mintaqaviy legitimligini kuchaytirib, uni normativ va geoiqtisodiy aktor sifatida shakllantiradi. Bu esa Turkiyaning mintaqadagi ta'sirini faqat ikki tomonlama aloqalar darajasidan ko'p tomonlama institutsional darajaga olib chiqadi [3].

Turkiya Markaziy Osiyoda o'z tashqi siyosiy ta'sirini kengaytirishda yumshoq kuch instrumentlariga tayanadi. Ushbu strategiya quyidagi asosiy **komponentlarni** o'z ichiga oladi: turkiy tilli oliy ta'lim muassasalari va akademik hamkorlik dasturlari, madaniy markazlar va gumanitar diplomatiya institutlari, stipendiya va akademik almashinuv dasturlari, tarixiy xotira va diniy-madaniy diplomatiya mexanizmlari. Mazkur instrumentlar Turkiyaning mintaqadagi siyosiy ta'sirini bevosita bosim yoki harbiy kuch orqali emas, balki normativ jozibadorlik va madaniy legitimlik orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada Turkiya mintaqada "qabul qilinadigan aktor" sifatida ijobiy imijga ega bo'lmoqda [4].

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi harbiy hamkorligi asosan texnik, ta'limiy va maslahat berish xarakteriga ega bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: harbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash dasturlari, qo'shma harbiy mashg'ulotlar va treninglar, mudofaa sanoati mahsulotlari va texnologik transfer, harbiy maslahat va ekspert yordami. Shunga qaramasdan, Turkiyaning mintaqada doimiy harbiy bazalarining mavjud emasligi uning strategik harbiy ekspansiya imkoniyatlarini cheklovchi asosiy omil hisoblanadi [5].

Bu holat bir nechta tizimli sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, **ShHT** va **KXSHT** kabi mintaqaviy xavfsizlik institutlarining muhim institutsional o'rni Markaziy Osiyoda harbiy-siyosiy muvozanatni shakllantiradi va tashqi harbiy aktorlarning mustaqil kirib kelishini cheklaydi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p vektorli tashqi siyosat strategiyasi hech bir tashqi kuchga ekskluziv harbiy ta'sir imkonini bermaydi. Uchinchidan, Turkiyaning NATO a'zoligi uning mintaqadagi harbiy siyosatini ehtiyotkorlik va muvozanat tamoyillari asosida yuritishga majbur qiladi. Natijada Turkiya Markaziy Osiyoda harbiy jihatdan yetakchi aktor emas, balki xavfsizlik sohasida qo'shimcha, yordamchi va hamkorlikka asoslangan strategik subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa uning umumiy mintaqaviy siyosatini yumshoq kuch va institutsional diplomatiya asosida shakllantirilgan "cheklangan ta'sir modeli" sifatida tavsiflash imkonini beradi.

**XULOSA.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik siyosati zamonaviy xalqaro munosabatlarning ko'p qutbli tizimi sharoitida shakllanayotgan murakkab va ko'p qatlamli strategik model hisoblanadi. Ushbu model klassik harbiy ekspansiya yondashuvidan farqli ravishda yumshoq kuch (soft power), institutsional diplomatiya va geoiqtisodiy instrumentlarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Turkiya mintaqada "dominant aktor" emas, balki moslashuvchan o'rta kuch sifatida harakat qilib, o'z ta'sirini asosan madaniy, siyosiy va iqtisodiy vositalar orqali amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, Turkiyaning strategik imkoniyatlari ma'lum institutsional va geosiyosiy cheklovlar bilan belgilanadi. Rossiyaning tarixiy xavfsizlik arxitekturasi, Xitoyning kuchayib borayotgan geoiqtisodiy faolligi hamda **ShHT** va **KXSHT** kabi mintaqaviy xavfsizlik institutlarining ustuvor roli Turkiyaning mustaqil harbiy-siyosiy ta'sirini cheklaydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p vektorli tashqi siyosati mintaqada muvozanatlashgan raqobat muhitini saqlab, biror tashqi aktorning ustun mavqega ega bo'lishini murakkablashtiradi.

Umuman olganda, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik siyosati "yumshoq kuch + institutsional hamkorlik + geoiqtisodiy integratsiya" kombinatsiyasiga asoslangan uzoq muddatli strategik yondashuv sifatida shakllanmoqda. Bu yondashuv Turkiyaga mintaqada bevosita harbiy yetakchilikka intilmasdan turib ham barqaror siyosiy va iqtisodiy ta'sirni saqlab qolish imkonini beradi hamda uni global va mintaqaviy siyosatda muhim o'rta darajadagi strategik aktor sifatida mustahkamlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kahveci H., Bonnenfant I. K. Turkish Foreign Policy Towards Central Asia: An Unfolding of Regionalism and Soft Power // *All Azimuth: A Journal of Foreign Policy and Peace*. – 2023. – Vol. 12, No. 2. – P. 1–24. DOI: 10.20991/allazimuth.1310530.
2. Yermekbayev A., Zhumatay G., Altynbek A. Central Asia in the Foreign Policy of Iran and Turkey // *Journal of Central Asian Studies*. – 2023. – Vol. 90, No. 2. – P. 41–55. DOI: 10.52536/2788-5909.2023-2.04.
3. Hovsepyan L. The Main Factors Underpinning Turkey–China Relations: The "Turkic World" Narrative and Its Implications // *Political Studies Review*. – 2023. – Vol. 59, No. 4. – P. 456–472. DOI: 10.1177/00094455231188100.
4. Sbitneva A. I. Turkey in Central Asia: Regional Trends // *Россия и новые государства Евразии*. – 2024. – № 4. – С. 133–151. DOI: 10.20542/2073-4786-2024-4-133-151.
5. Alrmizan M. *Turkish Foreign Policy in Central Asia: The Convergence of Pan-Turkism, Pragmatism, and Islamism*. – London: City, University of London, 2022.